SO'Z TURKUMLARI VA UNING XUSUSIYATLARI

Jo'rayeva Nargiza Tilovmurodovna

Termiz davlat universiteti akademik litseyi

Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya: So'zlar o'xshash xususiyatlariga ko'ra birlashtirilib, so'z guruhlarini hosil qiladi. Ushbu guruhlar tilni yaxshiroq tashkil etish va tushunishga yordam beradi. Ushbu so'z guruhlarining xususiyatlarini tushunish tilni tushunishni sezilarli darajada oshirishi mumkin. Ushbu maqola so'z guruhlarining xususiyatlarini o'rganib, ularning samarali muloqotdagi ahamiyatini ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: Til, jamiyat, so'zlar guruhi, so'z turkumlari, ot, sifat, aniqlik, tartibga solish.

Kirish: Til– kishilik jamiyatida eng asosiy kommunikativ vosita. Insoniyat paydo bo`libdiki, kishilik jamiyati uchun umumiy va jamiyat a'zolarining har birida individual holda aloqa-aralashuv vositasi sifatida til ham vujudga kelgan.

Zeroki, inson yaralishi bilanoq muomala uchun til va undan foydalanish ehtiyoji paydo bo`lgan. Shu bois til ijtimoiy ong kabi qadimiydir. Insonlar til vositasida fikr almashadilar, bir-biri haqidagi harakat-holatlar, voqea-hodisalardan voqif bo`ladilar.

Bu tilning aloqa-munosabat xususiyatidir. Tilni faqat kishilar o`rtasidagi aloqa vositasi sifatidagina talqin etish insonning tabiiy tilini, bu benihoya murakkab va muhtasham hodisani, eng kami, jo`nlashtirishdan, aniq bir milliy qiyofa yoki milliy-ruhiy zamindan mutlaqo mosuvo bo`lgan sun'iy tilga (masalan, esperanto kabi) tenglashtirishdan, yo`l harakatini tartibga solish maqsadida yaratilgan shartli ―til‖ga baravarlashtirishdan boshqa narsa emas .

Chindan ham, til faqat aloqa vositasi bo`lganda edi, u juda oddiy, sodda va qashshoq bir narsaga aylangan bo`lardi. Holbuki, til bemisl boy, sehru sinoatga, ruhu ruhoniyatga, ko`rku komillikka limmo-lim bir xilqatdir.

Uzoq o`tmishda ham odamlar o`z ona tillarida ishlatiladigan so`zlarning so`zlashuvda farqlanishiga e`tibor berishgan. Bir so`zlar predmetlarni, boshqalari xususiyatlarni ko`rsatadi, qolganlari kelishiklarda turlanadi, yana birlari shaxs va zamonlarda o`zgaradi. Qadimgi hind va yunon tilshunoslari tomonidan qilingan bu kuzatishlar, ularga ikki aniq so`z turkumlarini ajratish uchun asos bo`ladi: Ot va fe`l. Arastu (mil. avv.384-322- yil ) so`zlarni uchta so`z turkumlariga ajratadi: ot, fe`l va bog'lovchilar.

Miloddan avvalgi III-II asrlardagi elinizm davrida Aleksandr grammatikasi maktabi tashkil etiladi va uning namoyondasi Aristarx Samofrakskiy tarixda birinchi marotaba sakkizta so`z turkumidan iborat klassifikatsiya (tasnif) tuzadi. Bu so`z turkumlari quyidagilar: ot, fe`l, sifatdosh, artikl, olmosh, predlog, ravish va bog'lovchilar.

Bu klassifikatsiyada sifat so`z turkumi mavjud emas, bu o`z navbatida yunon tilining tipologik mohiyatini aks ettiradi. Chunki o`sha paytlarda sifat so`z turkumi ot so`z turkumi bilan umumiy tarzda turlangan va bir so`z turkumini tashkil etadi, bu so`z turkumi "ism" deb atalgan. Boshqa tomondan, bu klassifikatsiyada sifatdosh alohida so`z turkumi sifatida ajratilgan.

Aleksandriyalik grammatistlar tuzgan so`z turkumi tizimida ko`pgina kamchiliklar borligiga qaramasdan, masalan: undagi ot va fe`lning to`qnashadigan xususiyatlari, bu klassifikatsiya fan va maktab doirasida mustahkam o`rnashdi va hozir ham ba`zi o`zgarishlar bilan ishlatib kelinmoqda.

Umuman ilmning rivojlanishiga aloqador bo`lgan tilshunoslik fikrining rivojlanishi, shuningdek, har xildagi tillarning chuqur o`rganilishi so`z turkumlarining avvalgi klassik tizimini qayta ko`rib chiqishga olib keldi.

So`z turkumlari guruhlardan yoki turlardan tashkil topganligi tufayli, ular bo‘yicha tildagi so`zlar taqsimlanadi, ularda so`zning ikki tomoni ham aks etilishi kerak. Bundan so`z tavsifi uchun ikki mezon kelib chiqadi - semantik va shakliy morfologik.

Semantik mezon muayyan so`zni keng ma`nodagi kategoriyaga bog‘laydi. Bunda predmet ma`nosini bildirgan so`zlar otlarning semantik turini tashkil etadi, predmet belgisini bildirgan so`zlar sifatlarning semantik turini tashkil etadi.

Bu kriteriy ancha oldin berilgan va tillarda so`z turkumlarini ajratib ko`rsatishning differensial xususiyatlaridan biridir. Morfologik kriteriy ma`lum so`zni, uning morfologik xususiyatlariga ko`ra aniq turga ajratish uchun ishlatiladi.

Masalan: turlanish paradigmasining mavjudligi shu paradigmaga ega bo`lgan so`z ot-so`z turkumiga mansubligini anglatadi. Albatta, agar bu morfologik xususiyat predmet semantik xususiyati bilan mos kelsa. Agarda turlanish paradigmasining mavjudligi sifat semantik xususiyiyati bilan mos kelsa, unda berilgan so`z sifat so`z turkumiga kiritilishi kerak.

Leksema ham serqirra mohiyatli lisoniy birlik, uning tasnifida bu jihat asosiy diqqat markazida turishi lozim. Chunki leksemaning har bir qirrasi alohida bir tasnifga asos bo’ladi. Uning har biri o’z o’rnida ahamiyatli.

So’z turkumlarida leksika va grammatika, lison va nutq, til va borliq munosabatlari shunday qorishadiki, bu murakkab holat ularni tasniflashni murakkablashtiradi.

So’z leksika uchun ham, grammatika uchun ham asosiy va zaruriy birlik. Modomiki, so’z turkumlari o’zida u yoki bu belgisiga ko’ra ajratilgan so’z guruhlari ekan, guruhga ajratishga doir muammolarni leksika, morfologiya va sintaksis bilan shug’ullanuvchi tadqiqotchilar o’zlaricha hal etadi.

So’z turkumi soni va tarkibini aniqlashda dunyo tilshunosligida bo’lgani kabi, o’zbek tilshunosligida ham, so’zlarning semantik, morfologik va sintaktik xususiyatini inobatga olish keng tarqalgan.

Biroq amaliyotda so’z turkumlarini ajratishda, asosan, ularning semantik xossasiga tayanish urf bo’lgan. Ayrim tilshunoslar tomonidan tasnifda ma‘noviy belgi bosh va yagona asos sifatida qaraladi. Ba‘zilar esa mezon sifatida mazkur uch belgini tan olgani holda so’zlarni ma‘noviy va sintaktik belgilari asosidagina guruhlashadi. So’z turkumlarining bir- biriga o’tishi, leksik va leksik-grammatik omonimiya masalasi esa bunda har xil qarama-qarshilik va ikkilanishlar yuzaga kelishiga sabab bo’ladi.

So’z guruhlari aro munosabatlarning ochilishi u yoki bu belgi asosida so’z turkumining muayyan turini ajratishga, tasnifini berishga olib keladi. Shuning uchun mantiqiy qarama-qarshilikdan qochish maqsadida formal mantiqning borliq hodisasini tasniflashga qo’yadigan

asosiy talabidan biri bo’lgan «tasnifni faqat bir mezon asosida amalga oshirish, tasnifning ikki belgisini bir paytning o’zida qo’llab, ularni qorishtirmaslik» qoidasiga qat‘iy rioya qilish lozim.

Xulosa

So'z guruhlari samarali muloqotning qurilish bloklari hisoblanadi. Ularning xususiyatlarini tushunib, ulardan mohirona foydalansak, biz o‘z fikrlarimizni aniq va ta’sirchan tarzda yetkaza olamiz. Gap tuzilishidagi xilma-xillik, faol ovoz, o'tish so'zlari va so'z tanlash kuchli va jozibali tilni yaratishda muhim elementlardir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Гуландом Мирханова. (2022). СИНОНИМ СЎЗЛАР ЎҚУВ ЛУҒАТИНИНГ УМУМИЙ ТУЗИЛИШИ.Yosh Tadqiqotchi1(2), 172-178. Olingan http://2ndsun.uz/index.php/yt/article/view/90
2. Gulbahor, T. (2016). Axloqiy-ma'naviy tushunchani belgilaydigan birliklarning tuzatilgan ma'nolari. ANGLISTICUM. Assotsiatsiya jurnali-ingliz Tili va Amerika tadqiqotlari instituti, 5 (7), 40-45.
3. Ахмедова, Д. (2020). Семантик разметка тизимида тег гуруҳлари.Sharq san'ati va madaniyati, (III), 440-444.
4. Ergasheva, Y. N. (2021). O'ZBEK TILI SINTAKSISINI TADQIQ ETISH METODIKASI. Galaxy Xalqaro Fanlararo Tadqiqot Jurnali, 9(11), 22-28.
5. Baxriddinov, B. M. (2020). "DEVONU LUGOTIT TURK" ZAMONAVIY MURAKKAB O'QUV LUG'ATLARINING BIRINCHI KO'RINISHI SIFATIDA. Nazariy Va Amaliy Fan, (4), 981-985.